



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 1587,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 120,7 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 878,3 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.


2018 yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1587,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni transport xizmatlari (28,6 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)




Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Transport xizmatlari - 453,9 mlrd.so'm, savdo xizmatlari- 437,4 mlrd.so'm, boshqa xizmatlar - 374,7 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 200,2 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 121,4 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

Zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish, aholining ta'lim va madaniy darajasini oshirish, ko'rsatilayotgan xizmatlar doirasini kengaytirishga yordam beradi.

2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar (120,7%), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (114,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (107,0 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

**2018 yil yanvar-may oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi**

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar- jami	1587,6	104,8
shu jumladan asosiy turlari bo'yicha:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	121,4	113,9
Moliyaviy xizmatlar	200,2	120,7
Transport xizmatlari	453,9	101,9
shu jumladan: avtotransport xizmati	435,4	101,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	38,1	104,1
Savdo xizmatlari	437,4	100,4
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	55,5	100,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	47,8	107,0
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	30,6	114,9
Ijara xizmatlari	36,3	103,4
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yi- cha xizmatlar	59,9	100,5
Shaxsiy xizmatlar	52,6	100,1
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	13,1	102,7
Boshqa xizmatlar	40,8	105,7